

JADIDLARNING TO‘Y VA AZA MAROSIMLARI HAQIDAGI QARASHLARI

Matluba Jandrejeva Mamarajab qizi,

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
o‘zbek tili va adabiyoti folklori instituti tayanch doktoranti
E-mail: matlubajandrejevaoff@gmail.com*

Anotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyotining yirik vakili Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik maqolalarida, A.Qodiriy she‘rlarida o‘z aksini topgan to‘y va aza marosimlaridagi ortiqcha chiqimlar, qoloq urf-odatlar bilan bog‘liq fikrlari bugungi kun bilan bog‘lab tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, A.Qodiriy, publitsistika, maqola, mavzu, marosim, to‘y, aza, urf-odat.

Аннотация. В данной статье анализируются взгляды Махмудходжа Бехбудии, видного представителя джадидской литературы, на чрезмерные расходы и отсталые обычаи свадебных и траурных церемоний, отраженные в его журналистских статьях и стихах А. Кодирия, в контексте современности.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбудий, А. Кадыри, журналистика, статья, тема, церемония, свадьба, траур, традиция.

Abstract. This article analyzes the thoughts of Mahmudkhoy Behbudi, a prominent representative of Jadid literature, regarding excessive expenses and backward customs in wedding and mourning ceremonies, as reflected in his journalistic articles and A. Qodiriy's poems, in relation to today.

Keywords: Mahmudkhodja Behbudiy, A. Qodiriy, journalism, article, topic, ceremony, wedding, mourning, tradition.

Kirish. Hech kimga sir emaski, to‘y inson hayotida eng muhim ro‘l o‘ynovchi marosimlardandir. Yoshlar yangi hayotga qadam qo‘yganining belgisi sifatida atrofdagi qavm-qarindoshlari va yaqinlariga, jamiyatga bildirish maqsadida bu marosim o‘tkaziladi. Ammo hayotimizga juda ko‘plab to‘y bilan bog‘liq urf-odatlar kirib kelmoqda va bularni amalga oshirish esa moddiyat bilan bog‘liq masaladir. Shu sababdan ham muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham bu masalaga alohida e‘tibor qaratmoqda va qarorlar qabul qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Jadid adabiyoti va publitsistikasi bo‘yicha tadqiqotlarda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Munavvar Qori Abdurashitxon kabi ma‘rifatparvarlarning to‘y va aza marosimlaridagi isrofgarchilik, qoloq urf-odatlar hamda ma‘rifatga e‘tibor masalalariga munosabati yoritilgan. Behbudiyning “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Zo‘raki boy”, “A‘molimiz yoinki murodimiz” maqolalari hamda A.Qodiriyning “To‘y”, “Fikr aylag‘il” kabi asarlarida ortiqcha xarajatlarning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta‘siri tanqid qilinadi. Mavjud manbalar jadidlarning iqtisodiy, ma‘naviy va ma‘rifiy islohot g‘oyalarini yoritadi, biroq marosimlar masalasining zamonaviy ijtimoiy kontekst bilan qiyosiy tahlili yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiy-qiyosiy, matnshunoslik va diskurs tahlili metodlariga asoslanadi. Behbudiy, Qodiriy va Munavvar Qori asarlaridagi to‘y va aza marosimlariga oid fikrlar tanlanib, ularning mazmuni, badiiy ifodasi va ijtimoiy-ma‘rifiy

g'oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, jadid davri matbuoti materiallari bilan bugungi marosim amaliyotlari qiyoslanib, uzviylik va farqli jihatlar aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. To'y masalasi faqat bugungi hayotda emas, balki jadidlar davrida ham asosiy masalalardan biri bo'lgan. Buni biz jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida, maqolalarida ham ko'rishimiz mumkin. Behbudiy o'zining "Bizni kemirguvchi illatlar"[1.338-342] nomli maqolasida, illatlar deya to'y va azalarni ko'rsatadi. Chunki bu davrda o'rtahol oila to'y o'tkazish uchun 2000 so'm, boy esa 5000 so'mdan 10000 so'mgacha, xatna to'y uchun esa kamida 1000 so'm sarf etishar, ammo bu oddiy kosib uchun o'limdan qattiq ekanini ta'kidlab: "Ko'pkari va uloq chopmoqlik odati mal'unonasig'a har viloyatdan har sana yuzlar ila kishi oxiratg'a ko'char, na qadar kishi majruh va ma'yub bo'lar. Ko'p kishilar sayr va ko'pkari shumligi ila ishdan va ziroat vaqtidan qolur. Uyig'a ozuqasi yo'q, ho'kuzi va sog'ar siyiri yo'q ekan, bir necha yuz so'mg'a ot olib har kuni anga hindidek parastish etib, har kun bir so'm sarf etar, na uchun? To'y va sayrg'a ko'pkari chopmoq uchun"[2.33] kabi fikrlarni aytadi. Bu fikrlari orqali insonlarga bu kabi keraksiz narsalar uchun emas, vaqti va pulini farzandlarining bilim olishi, yaxshi hayot kechirishi uchun harakat qilishga da'vat etadi.

Shariatdan misollar keltirib, o'lganni tez ko'mish, ko'mgandan so'ng tez tarqalish kerakligini va azali oilani uch kundan ortiq taziya qildirmaslik kerakligi amr qilinganligini isbot qilib beradi. Ammo xalqimiz besh-olti maraka va xudoyi, 8-9 jum'a oqshomi butun mahalla va qishloq ahliga palov berishi, marakalardan so'ng bu qarzlarni berolmay uysiz-joysiz qolishini aytadi. Albatta, bu fikrlar qimmatlidir, chunki inson o'z holiga yarasha emas, insonlar orasida obro'-e'tibor uchun qilinayotgan, dinimizda bo'lmagan bu kabi odatlar ba'zi oilalarni moddiy qiyin ahvolga solib qo'yishi tayin. Afsuski, o'zbek to'ylari qadimdan o'zini ko'rsatish, dabdaba va ortiqcha xarajatlar bilan o'tkazilib, o'zlarini sharmandali ahvolga olib kelgan. Hattoki jadidlar davrida to'y va ma'rakalarni o'tkazish uchun sutxo'rlardan foizga pul olgan va qarzini berolmasdan bor mulkini berishgan, natijada boshpanasiz qolgan aholi ko'pchilikni tashkil etgan. Buni biz yana bir jadid adabiyoti vakili Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasida fojiiyali yakun topgan, yoshlarning o'limiga sabab bo'lgan to'y marosimidagi ortiqcha urf-odatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Abdulla Qodiriy "To'y" she'rida ham bu marosimning xalqni qanchalik qiyin ahvolga solganligini kuylagan.

TO'Y

Qildi bu vaqt bizda javlon to'y,
Oqchasi yo'qni etdi hayron to'y.

Bir-biridan oshurdilar to'yni,
Topdi ravnaq, hayrat ila boyon to'y.

Besh kun to‘yni so‘ngidin (...)
Ketibon mulklar bois fi g‘on to‘y.

Boyon to‘yig‘a yerlilar qarab
Etdi sarf toki tandagi jon to‘y.

Ey g‘aniylarimiz, ey faqirlarimiz,
Amr etubdurmi bizg‘a Qur‘on to‘y?

Mundayin ishlar shar‘imizda yo‘q,
Kori maj‘us, kori shayton to‘y

Ishlamas shunday aqllik kishi,
Yo‘lamas aslo ahli vijdon to‘y.

O‘tsa to‘y birla yoz-u qishimiz,
Aylagay bizni yerg‘a yakson to‘y.

Kelingiz, do‘stlar, din qarindoshlar,
Tashlasun bo‘lsa gar musulmon to‘y![3.2]

Bu davrda to‘ylar avj olganli, aholini vayron qilayotganligini go‘zal misralar orqali ifodalab bergan. Kim o‘zarga to‘y qilishib, huddi tanasidagi jondek to‘yda bor yo‘g‘ini sarf qildi degan xitobidan ham insonlar qanchalik to‘y uchun bor -budidan vos kechishga ham tayyor ekanligini bilishimiz mumkin. Ammo A.Qodiriy Qur‘onda bunday to‘ylar amr etilmaganligi, bu odatlar nasroniylarga tegishli ekanligini va musulmon bo‘lganlarni bu yo‘ldan qaytishga, yo‘qsa bu to‘ylar bizni yakson qilishini uqtiradi. Albatta, qilgan mehnati faqat yeb-ichmoq va ko‘z-ko‘z qilish bo‘lsa bu xalqda rivojlanish ham bo‘lmaydi va buni o‘z davrida jadidlar ilk davrlardan anglab yetgan ma‘rifatparvarlardan edi. Shu sababli buni insonlar ongiga singdirishga harakat qilgan. A.Qodiriy “Fikr aylag‘il” she‘rida ham insonlarni qilayotgan ishlari haqida fikr qilishga chorlaydi. To‘ylar qilish uchun insonlarning yer sotishini bid‘at yo‘lida jon fido qilishga qiyoslaydi.

Yer sotarlar elda necha to‘y bajo etmak uchun,
Chunki bid‘atin yo‘lida ham fi dodur jon-u tan.

Marosim o‘tkazishda ko‘p pul sarflanayotganligi, bu pullar orqasidan restoranlarda pullar to‘lib toshganligini aytar ekan, bu orqali bunaqa sarf-xarajatlarning insonlarga

foydasi yo‘q ekanligi, faqatgina boshqalar uchun bir kunlik bazmdangina iborat bo‘lishini uqtiradi. Ammo bu kayf-safoda yeb-ichib jir bitmasligini aytadi va buni sigirga qiyoslagan holda achchiq tanqid ostiga oladi.

Pulni ko‘b isrof etarmiz, bizg‘a to‘g‘ri kelmag‘ay,
To‘libon toshti bu vaqt ul aqchalardin resto‘ran.
Zanlari sohibjamol-u ham satang deb o‘ylama,
Yeb-ichib jir bitmagan andoq sigiri belabon.

Bo‘yniga tilla taqinchoqlar taqqan qizlarni ko‘rganda oqila, go‘zal qiz deya boqamiz, ammo A.Qodiriy bu qizlarni olima deb o‘ylamang, ular foydasiz so‘zlaydigan, nafi tegmaydigan qizlar deya ta‘rif beradi. Qo‘liga pul tushganda insonlar bir soat ham ushlab turmasligini nodon qo‘lida sumanning tuproq bo‘lishiga qiyoslaydi. She‘r oxirida Qodiriy o‘zining hasratidan so‘yladi deb haqorat qilmang deya murojaati bilan yakunlaydi.

Qizlarin bo‘ynida ko‘rub zebigardon ham tumor,
O‘ylamangiz olima deb, jumlası naf‘siz, ziyon.
Tushsa pul qo‘lig‘a gar, soatcha to‘xtab turmagay,
Chunki nodonni qo‘lida mushk tufroqdur suman.
Qodiriy nazdingiza oz hasratidin so‘yladi,
Ayb etub qilmang haqorat, muhtaram ahli vatan.[4]

A.Qodiriy she‘rlariga katta ma‘no yuklangan. Yozgan she‘rlari ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan. Jadidlarimiz bu davrda o‘zlarining ilg‘or fikr va qarashlari orqali xalqni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Zo‘raki boy”[5. 270-273] maqolasida ham “ To‘y ” mavzusini yoritib bergan. O‘z davridagi qoloqlashishga, ilmsizlikka yo‘l ochayotgan mavzularni qalamga olib, insonlarga farzandlarini ilm olishlariga imkon yaratishi kerakligini va shu orqali qoloqlikdan, qaramlikdan qutilish mumkin ekanligini ochib bermoqchi bo‘lgan. Buni bir zo‘raki boy misolida tasvirlab beradi. Otasidan qolgan bog‘ va 10000 so‘mlik merosi bo‘lgan boy to‘y qilish taraddudiga tushadi. Xatna, nikoh to‘y qilishi kerak, ko‘pdan chiqib bo‘lmaydi deya banklardan kreditlar olgan boy qisqa vaqt ichida 30000 so‘mlik boyga aylanadi. Zo‘raki boy bu pulni umrida ko‘rmagan edi, o‘zining dehqonligini ham unutilib, barcha pullarini ot-aravalar sotib olishga, yangi imoratlar qilishga, nasiyaga berishga va turli ziyofatlarga sarflab isrofgarchilik qiladi. Buni ko‘rib oila a‘zolari ham isrofgarchiliklar qiladi. To‘y navbati yetganda o‘zi umrida ko‘rmagan Toshkentdan Afg‘onistongacha shuhrati ketgan boylar ro‘yxati tuziladi va zarhalli xatlar bilan taklif etiladi. Xiva, Farg‘onadan xonandalar taklif etiladi. To‘y katta

sarf-xarajatlar bilan o'tkaziladi. Bunaqa to'ylarni ko'rgan boylar, albatta, undan ham o'tishga, kattaroq to'y qilishga harakat qiladi. Xalqimiz orasida insonlarning gap so'zlari yoki ularning maqtovlari uchun yashayotgan va harakat qilayotganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Zo'raki boy ham huddi shu insonlar qatorida edi. Hamma uni tanishini. To'yi qanday o'tganligi xalq orasida duv-duv gap bo'lishini xohlagan va bu yo'lda boridan kechib, davlatdan qarzlarni ham olgan boy aql bilan ish yuritishni ham unutadi. Zo'raki boy bu to'yni tugatmasdan yana bir to'y sodir bo'ladi, ya'ni 50-60 yoshlardagi boy 15 yashar qizga uylanadi va bunga ham sarf-xarajat qiladi. Bularning natijasida boy bankka pul yetkazolmay qoladi va bor-yo'g'ini qarzlariga beradi, qarasaki bankdagi 30000 so'm turibdi. Otadan qolgan mulkini sotib, 4-5 mingini beradi, ammo uy-joysiz, mulksiz oilasi bilan darbadarlikda qarz bilan qoladi. Bu o'rinda farzandlariga meros sifatida mol-mulk emas, balki, qarzlarini qoldiradi. Agar to'yida ortiqcha istofgarchilikka yo'l qo'ymaganida edi, uning hayoti boshqacha tus olgan bo'lar edi. Zeroki, "Inollo-lo-yuhib-ul-musrifin"[6.273], ya'ni Alloh isrof qilguvchilarni do'st tutmaydur. Bu davrda bu kabi zo'raki boylar ko'p edi va ularning qilgan yangicha urf-odatlarini boshqa kishilar ham qilish kerak degan qonunga aylanib, o'zida yo'q pulni, qarzlarni evaziga topib to'ylar qilishar edi. Natijada uy-joyini sotishga majbur edi. O'zbek xalqining qadimdan to'ylariga qaralsa ham, isrofgarchiliklar, dabdababozliklar ko'p bo'lgan. Qirq kecha-yu qirq kunduz to'ylar qilingan va katta harajatlar ketgan. Ammo o'sha davrda qanchadan-qancha aholi ochlikda hayot kechirgani, qiyinchiliklar bilan yashayotganida boshqa bir insonning qirq kunlab kecha-yu kunduz to'y qilishida ham xalqimizning qanchalik dabdababozlik qilganini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda Behbudiy mol-mulkinini ajnabiy xalqqa sotayotganini, o'zbek xalqining darbadar qolayotganini ham tanqid qilib o'tadi. Hattoki Samarqanddagi bir qishloqda o'zbeklar qolmaganini, maktab va masjid yopilishini ham misol qilib ko'rsatadi. Albatta, bu achinarli voqea edi, chunki umri davomida ishlasa-yu bir kunda o'tkazilgan to'y uchun bor-buduni sarflasa, uning ustiga yersiz, qarzdor bo'lsa. To'ydan keyingi hayot qanday kechadi? Farzandlari qanday ta'lim oladi?

"A'molimiz yoinki murodimiz"[7.154-156] maqolasida "Agarda to'y va marakag'a qadimgidek aqcha to'kmasak, ul oqchani na qilmoq kerak? Munga javob berilurki. To'y va maraka qilinsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadarincha kichik qilinsun. Va ortuqcha pul ila bolalarni musulmon va rusi yaxshi o'qitulsin. Madrasa va masjid hamda maktablarni shikastrextlariga sarf qilinsun. To'y va ma'raka oqchasidan hukumat maktablarig'a berilsun va bu oqchadan talabalar Makka, Madina, Misr, Istanbulg'a va Rusiya dorilfunung'a va dorulsanoatlarig'a yuborilib diniy va dunyoviy, zamonaviy odamlar yetishdurmog'ga sa'y qilinsun"[8.104-108], – deya xalqni uyg'otishga ilm-ma'rifatli bo'lishga chorlagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy to'y marosimlarini o'tkazishda o'zi namuna bo'lib, 1909-yil 15-aprelda o'g'li Maqsudxo'janing sunnat to'yini o'tkazadi va 1000 so'mdan kam pul

sarflaydi. Ortiqcha sarf-xarajatlarni qilmasdan qolgan puliga Samarqanddan bino sotib olib, kutubxona quradi. Vadud Mahmud “Behbudiy haqidagi xotiralari”da yozishicha, adib kutubxona uchun 6000 so‘mlik kitoblar xarid qilgan. Xalq orasida to‘yi muhokama bo‘lganda ba‘zilar o‘rnak bo‘lganini so‘ylasa, ba‘zilar imkonini hisobga olib, 2000-3000 so‘m sarf qilishi kerak edi deb tanqid ham qilishgan. Lekin ma‘rifat bilangina yaxshi hayot kechirish mumkin ekanligini anglagan adib ortiqchga pulini kutubxona tashkil qilib, ilm ulashishga harakat qilgan. Bu davrda Behbudiy kabi ma‘rifatparvar ijodkorlar ko‘pchilik edki. Ulardan biri Munavvar Qori Abdurashitxon ham o‘z maqolalari bilan bu mavzuga alohida to‘xtalib o‘tadi. “Taraqqiy” gazetasida o‘z maqolalarini ham e‘lon qiladi va to‘ylarga bo‘lgan munosabatini aytib o‘tadi. Munavvar Qori o‘z maqolasida ba‘zi urf-odatlarini tanqid qilib otadi. “Nikoh to‘g‘risida” nomli maqolasida “Qalmoq va xitoy toifalaridan qolg‘on bir rasmi qabihdurkim, nikohdan bir kun muqaddam besh-o‘n sozanda va juvonlarni jam qilib, ga‘yrimashru‘lar birla o‘z yor-u birodarlarig‘a bazm qilib ko‘rsatib, ofarinlar uyushtirar edilar. Bu ishni shar‘an haromlig‘i izhori minal shamsdir. Bir hovlida bir yalochi o‘ynasa, jami xotunlar ani atrofida turub o‘rtag‘a ma‘jusiyy otashparastlardek otash yoqurlar,ba‘zi joylarda bu badkirdorlarning o‘yinini erkaklar ham bir tarafda turub tomosho qilurlar va ba‘zi nodonlar qo‘llarig‘a tanga olib o‘yunchisini choqirib, bir a‘lo fohishabozlik qilurlar”[9.92]. Yuqoridagi kabi fikrlarida adib to‘ylarda qilinayotgan, ammo o‘zbek madaniyatiga to‘g‘ri kelmaydigan odatlarni tanqid qiladi va bunga chora ko‘rishga chorlaydi. Insonlar orasida dinimizga tog‘ri kelmaydigan harakatlarini yo‘qotishga va to‘ylarni go‘zal va oddiy shaklga keltirish tarafdori sifatida o‘z qarashlarini berib o‘tadi. Hoji Muin marosimlar haqida fikr bildirganda xalq orasida “Yor-do‘stlar orasinda beobro‘ bo‘ldim” degan qarash orqali, bu odatlardan vos kechmagan holda, uni o‘z o‘rniga keltirilayotganligini ifodalaydi. Turkiston xalqi ilmsizligi sababli ko‘p marosimlar ostida ezilayotgani, zararlar ko‘rganini aytar ekan, asosiy sabab sifatida o‘qimaslik, ilmsizlikni ko‘rsatadi. Aholining “Mol va jon ketsa kestin, obro‘ ketmasin” deya nikoh, xatna va aza marosimini joyiga keltirish uchun birikki kunda boridan kechayotganligini tanqid qiladi. Marosimdan keyin qarzlarni to‘lay olmay “Molni odam topar, mol odamni emas” deb bog‘, uy-joyini sotgan insonlar aslida obro‘sini yo‘qotadi degan fikrlarni aytadi. Yashashga yeri yo‘q, darbadar bo‘lib, na mol bor, na obro‘ darbadarlikka tushgan xalqimizning soni ko‘paygani uchun ham bu davrda har bir jadid ziyolilarini bu mavzu qaygvg‘uga solmasdan olmadi. Shu bois har biri qanday qilsa ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish mumkinligi haqida o‘ylagan holda matbuotda, asarlarida, she‘rlarida va sahnalarda ularga o‘z ta‘sirini o‘tkazishga harakat qildi. Jamiyatni ilm-ma‘rifatli qilish yo‘lida nafaqat Behbudiy va Munavvar Qori Abdurashitxon Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, A.Qodiriy, Hoji Muin va boshqa jadidlarimiz ham o‘z asarlari va maqolalari orqali isrofgarchilikdan qaytarishga va farzandlarini o‘qitishga, ilm-fanga homiylik qilishga chorlagan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XX asr boshlarida jamiyat taraqqiy etishidagi asosiy muommalardan biri bu – ortiqcha isrofgarchiliklar bilan o‘tkazilayotgan to‘y va azalar deb qaralgan. Behbudiy o‘z zamonasining ma’rifatparvarlari kabi o‘z maqolalarida bu masalalarni tanqid qilgan. Xalqni ma’rifatli bo‘lishga chorlagan, ortiqcha xarajatlar qilmasdan bu mablag‘larni yoshlar ilm olishi uchun sarflashlariga da’vat qilgan va bu masalada o‘zlari ham namuna bo‘lgan. Jadidlarimiz xalqni ozod va ma’naviyatli qilishni avvalo yoshlarga ilm berishda, teatrlar, maqolalar orqali xatolarini ko‘rsatishga va ilmli qilishga chorlagan. Xalqning yig‘ganini kelajak uchun sarflashga da’vat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Oyina” jurnali, 1915-yil, 13-son, 338-342-betlar
2. “Oyina” jurnali, 1915-yil, 13-son, 33-bet
3. “Sadoyi Turkiston” 1915-yil, 64-son, 20-mart, 2-bet
4. “Oyina” jurnali, 1915-yil, 12-son
5. “Oyina” jurnali, 1914-yil, 16-son, 270-273-betlar
6. “Oyina” jurnali, 1914-yil, 16-son, 273-bet
7. “Oyina” jurnali, 1913-yil, 6-7-sonlar, 130-132, 154-156 betlar
8. “Padarkush: drama, hikoya, maqola va hikmatlar” Toshkent, “Yoshlar matbuoti” 2024 y, 104-108-betlar
9. Munavvar Qori Abdurashitxon “Xitobnoma” 92-bet “Nikoh to‘g‘risida” maqola.
10. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T.: Ma’naviyat. 2009. 277 b.
11. Behbudiy M. “Padarkush: drama, hikoya, maqola va hikmatlar”. Toshkent, “Yoshlar matbuoti” 2024.
12. <https://oyina.uz/uz/article/3432>
13. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/mahmudxo-ja-behbudiy-bizni-kemirguvchi-illatlar-1915>
14. <https://davr24.uz/archives/1298>